

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY



“60110200 – Maktabgacha ta’lim” ta’lim yo’nalishi fanlaridan
yakuniy davlat attestatsiya sinovi

DASTURI

Namangan-2025

Annotatsiya

Mazkur dastur "Ta'lim to'g'risidagi" qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-sonli Farmoni va Qarorlarida belgilangan vazifalar hamda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar asosida belgilangan vazifalardan kelib chiqib "Turani International Universityda bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining yo'nalish fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish tartibi to'g'risida yo'riqnomaga asosan tayyorlandi.

Yo'nalish fanlardan tuzilgan sinov dasturi "Maktabgacha ta'lim" ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning dasturi asos qilib olindi.

Dastur 4 ta bo'limga iborat bo'lib, "Umumiy psixologiya", "Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi", "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi" va "Nutq o'stirish metodikasi" kabi fanlarni o'z ichiga olib, unda ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchiga quyilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malaka darajasini baholash masalalari o'z aksini topgan.

Tuzuvchilar:

Xabibullayeva Sayyoraxon

Maxkamova Husnida

Ergashev Bunyod

D. Abdusamiyev

Turani International University

Gumanitar fanlar va pedagogika

kafedrasi mudiri, dotsent,

Pedagogika fanlari doktori (DSc)

Dastur Turani International University "Gumanitar fanlar va pedagogika" fakulteti yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun Universitet kengashiga tavsiya etilgan 2025-yil "12" 12 dagi sonli majlis bayoni.

Dastur Turani International University kengashi tomonidan tasdiqlangan. 2025-yil "24" 12 dagi sonli majlis bayoni.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur Yakuniy davlat attestatsiyasi dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Prezidentimizning PQ-289-sonli qarori bilan maktabgacha, boshlang'ich ta'lim, rus tili va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kabi yo'nalishlarda ta'lim muddatining 3 yil etib belgilanishi va o'quv jarayonining "4+2" tartibida (nazariya va amaliyot uyg'unligi) tashkil etilishi bitimvchilarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan) talablariga muvofiq, bitimvchilarning tayyorgarlik darajasi ushbu attestatsiya orqali aniqlanadi.

I. Yakuniy davlat attestatsiyasi qo'yilgan umumiy qoidalar

1. Umumiy tushunchalar:

yakuniy davlat attestatsiyasi—bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitimvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholash jarayoni.

yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi --- bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitimvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholovchi soha mutaxassislaridan iborat komissiya.

2. Attestatsiya oliy ta'lim tashkilotidagi har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha tashkil etiladigan komissiya tomonidan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) o'tkazilishi mumkin.

3. Attestatsiya quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- maxsus (mejburiy) fanlar (kasbiy-amaliy fanlar) bo'yicha sinov;
- bitiruv malakaviy ishi himoyasi;
- diplom loyihasi himoyasi;
- magistrlik dissertatsiyasi himoyasi;
- ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikka mos "startap" loyihasi hamda ratsionalizatorlik g'oyasi taqdimoti.

4. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik bo'yicha maxsus (mejburiy) fanlardan (kasbiy-amaliy) attestatsiya fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, malaka talablarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

II. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

5. Komissiya o'z faoliyatini oliy ta'lim tashkilotlari bitimvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom talablariga muvofiq amalga oshiradi.

6. Komissiya raisligiga nomzodlar ro'yxati tegishli kafedra mudiri tomonidan shakllantiriladi hamda tasdiqlash uchun oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

7. Komissiya raislari oliy ta'lim tashkilotining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim tashkilotida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarish sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan tegishli oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir kalendar yili muddatiga tasdiqlanadi.

Komissiyaning tarkibi oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan kamida bir oy oldin tasdiqlanadi.

Komissiya kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan iborat tarkibda shakllantiriladi hamda uning uchdan ikki qismi qatnashganda, vakolatli hisoblanadi.

Bunda komissiya tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagog kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, kadrlar buyurtmachi bo'lgan korxonalarning (tashkilotlarning) yuqori malakali

mutaxassislari, tundosh oliy ta'lim tashkilotlarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, sohaming ilg'or mutaxassislari va olimlaridan iborat bo'ladi.

8. Quyidagilar komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:
bitiruvchining bilim, ko'nikma va malaka darajasining tegishli ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik malaka talablariga muvofiqligini kompleks baholash;

attestatsiya natijalari bo'yicha bitiruvchilarga tegishli akademik darajasini berish bo'yicha qaror qabul qilish;
faoliyat natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

9. Attestatsiyada oliy ta'lim tashkilotining Vasiylik (Kuzatuv, Boshqaruv) kengashi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachi jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Attestatsiya jarayoni onlayn rejimda ovozi videoontranslyatsiya qilinadi hamda ushbu videotasvirlar bir yil davomida tegishli kafedrada saqlanadi.

III. Attestatsiyani o'tkazish tartibi

10. Attestatsiyaga tegishli fanlarni o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchilar qo'yiladi.

Bitiruvchilar o'quv yuklamlarini to'liq bajargandan so'ng attestatsiyadan o'tishi majburiy hisoblanadi.

11. Bitiruvchilarning maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy) bo'yicha attestatsiyasi, diplom loyihasi (bitiruv malakaviy ishi) yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi oliy ta'lim tashkiloti yoxud korxonada (tashkilotda) tashkil etiladi.

12. Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tajribali professor-o'qituvchilar hamda korxonalarining (tashkilotlarning) mutaxassislarini jalb etgan holda, attestatsiyaning dasturlari attestatsiya boshlanishidan kamida uch oy oldin ishlab chiqilib, oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

13. Attestatsiya o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda, fakultet dekani yoki o'quv-ustubiy ishlarga mas'ul tarkibiy bo'linma (bo'lim, boshqarma) tomonidan tayyorlangan hamda oliy ta'lim tashkiloti o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan attestatsiya jadvali asosida o'tkaziladi.

14. Oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan attestatsiyaning shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Attestatsiya boshlanishidan ikki hafta oldin komissiya raisi bilan oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) komissiyaning tayyorgarlik darajasi, komissiya raisi va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazadi.

16. Attestatsiyada plagiatcha yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda, attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiyadan qoniqsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi himoyadan ikki hafta oldin antiplagiatcha dasturi asosida tekshiriladi va plagiatcha yo'l qo'yilganligi aniqlansa, takroran bir marotaba qayta tekshirishdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Ikkinchi marotaba ham plagiatcha holatlari bartaraf etilmagan taqdirda, attestatsiya keyingi yilga qoldiriladi.

Bunda plagiatcha holatlari bartaraf etilgan taqdirda, bitiruvchiga attestatsiyada qatnashishga ruxsat beriladi.

17. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

18. Attestatsiya natijalari attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida bitiruvchilarga e'lon qilinadi.

19. Attestatsiyada bitiruvchi qoniqsiz baho bilan baholanganda bitiruvchiga diplom berilmaydi hamda attestatsiyani mazkur Nizomga muvofiq qayta topshiradi.

20. Komissiya bitiruvchilarga attestatsiyaning ijobiy natijalari asosida bakalavr (magistr) darajasini berish haqida qaror qabul qiladi.

Komissiyaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchisi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng bir oy muddat ichida unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

O'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida to'rt dan uch qismi bo'yicha "5" (a'lo) baho (90 — 100 ball) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi "4" (yaxshi) bahodan (70 — 89,9 ball) kam bo'lmagan), shuningdek, attestatsiyadan "5" (a'lo) baho (90 — 100 ball) ko'rsatkichiga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

22. Attestatsiyadan o'ta olmagan yoki attestatsiyaga qo'yilmagan bitiruvchi o'qish muddati tugagandan so'ng, uning arizasiga muvofiq attestatsiyani keyingi uch yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchidan attestatsiyani qayta topshirish jarayonlarida to'lov undirilmaydi.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchi keyingi o'quv yili boshlangandan keyin attestatsiyani qayta topshirishga ruxsat berilishi so'rab oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qiladi. Bunda bitiruvchiga attestatsiyani keyingi har bir o'quv yilida (uch yil davomida) ikki marta dan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Attestatsiyani qayta topshirishga oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan ruxsat beriladi.

IV. Attestatsiyani baholash natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

23. Attestatsiya natijasi bo'yicha olgan bahosidan norozi bo'lgan bitiruvchilar arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, tegishli soha bo'yicha korxonalarining (tashkilotlarning) malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda komissiya ishida ishtirok etgan komissiya a'zolari kiritilmaydi.

24. Attestatsiyada qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar attestatsiya baholari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

V. Baholash mezonlari

“60110200 – Maktabgacha ta'lim” ta'lim yo'nalishi bo'yicha Yakuniy Davlat attestatsiyasi yo'nalish fanlaridan test sinov savollari dasturida o'kaziladi. Test savollari ta'lim yo'nalishining “Umumiy psixologiya”, “Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi”, “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi”, “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” va “Nutq o'stirish metodikasi” kabi yo'nalish fanlarini ichiga olib 400 ta savoldan iborat bo'ladi. Test sinovini baholashning umumiy mezoni 0 baldan 100 balgacha tashkil etadi. Har bir savol maksimal 2 baldan baholanadi.

Savolnomadagi 50 ta test savolining javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida bitiruvchi talabanning Yakuniy Davlat Attestatsiyasida yo'nalish fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

№	Umumiy ball	Baho	YaDA topshirgan talabning bilim darajasi
1	90-100	5	Savolning mazmun va mohiyati to'liq ochib berilgan
2	70-89,9	4	Javobda talabanning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi
3	60-69,9	3	Savolga javob berishda masalaning mohiyatini tushunilganligi
4	0-59,9	2	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas

I-fan “Nutq o'stirish metodikasi” fanidan test topshiriqlari

1. Subbat uchun asos nima.
2. Hikoyaning mazmuniga ko'ra turlari to'g'ri berilgan javobni toping.
3. Hikoyaning shakliga ko'ra turlari berilgan javobni aniqlang.
4. Tasviriy hikoya turlari berilgan javobni aniqlang.
5. Mazmunli hikoya turlari berilgan javobni toping.
6. Bog'lanishli nutq va uning turlari berilgan javobni aniqlang.
7. Subbat turlari berilgan javobni aniqlang.

8. Nutq o'stirish metodlari berilgan javobni aniqlang.
9. Og'zaki metod turlari berilgan javobni aniqlang.
10. Ko'rsatmalilik metodi turlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
11. Amaliy metod turlari ko'rsatilgan javobni toping.
12. Nutq o'stirish metodikasining vazifasi to'g'ri ifodalangan javobni toping.
13. Nutqiy namuna – bu.
14. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish metodlarini aniqlang.
15. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash vazifalari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
16. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik nutqi negizida qanday nutq rivojlanadi.
17. Bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o'zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan pedagog olim kim.
18. Bolalarni maktabga tayyorlashdagi so'z boyligining minimal me'yorlari berilgan javobni aniqlang.
19. “Nutqni eshituvchining asosiy vazifasi nutqni tushunish, fikrlash va uni chuqur egallashdan iboratdir” iborasining muallifini aniqlang.
20. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida qanday vazifalarni bajaradi.
21. Nutq o'stirish metodikasi fani nimani o'rgatadi.
22. Ona tilini birlamchi o'qitishning uchta asosiy maqsadlarini shakllantirgan I. – so'z imkoniyatlarini rivojlantrish; II. – bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish; bolalarni “ona tilining boyliglarini egallash”ga jalb qilish; III. – til qonunlarini, uning grammatikasini o'rganish. Bu kimning pedagogik qarashi.
23. Maktabgacha ta'limda bolalar yosh guruhlari necha bosqichdan iborat.
24. Ilk yosh guruhda bolalarni nutqga o'rgatish bosqichining asosiy metodlarini aniqlang.
25. “Nutqni o'stirish metodikasi” fanining maqsadi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
26. “Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim – tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari” qachon qabul qilingan.
27. Buyuk sarkardalar Amir Temur, Mirzo Bobur, Jaloliddin Manguberdilar bilan qaysi guruhda tanishtiriladi.
28. Badiiy asarni o'rgatish metodlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
29. Badiiy asarni sahnalashtirish turlari to'g'ri berilgan javobni toping.
30. Nutq o'stirish metodlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.
31. Og'zaki metod turlari berilgan javobni aniqlang.
32. Amaliy metod turlari ko'rsatilgan javobni toping.
33. Nutq o'stirish usullari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
34. Bolada ichki nutq qachon paydo bo'ladi.
35. Bolalarni erkin muomalaga o'rgatish qanday faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi.
36. Bolalarni dialogik nutqni tarkib topitirishda qanday maxsus mashg'ulotlardan foydalaniladi.
37. Dialogik nutqni shakllantirish bu ...

38. Intonatsiya bu
 39. Qayta hikoya qilishga ta'rif qaysi qatorda to'g'ri berilgan.
 40. Diologik nutq o'stirishning asosiy metodi bu ...
 41. Ohang bu
 42. Monologik nutq qaysi guruhdan boshlab o'rgatiladi.
 43. Tayyorlov guruhida mashxur sarkardalardan kimlarni bilish kerak.
 44. Juda to'g'ri talaffuz qilish qoidasi
 45. Bolani o'z tajribasidan hikoya tuzish qaysi guruhda boshlanadi.
 46. Bola o'ziga tanish e'tak qahramonlaridan biri rolini o'ynaydi, o'yin jarayonida u qahramon so'zlarini takrorlaydi va shu tariqa o'z nutqini boyitiadi. Bu qanday o'yin turiga kiradi.
 47. O'yinida bola o'ziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni o'yinchoqlar o'rtasida taqsimlaydi. Bu qanday o'yin turiga kiradi.
 48. Bolalarni diologik nutqini tarkib toptirishda qanday maxsus mashg'ulotlardan foydalaniladi.
 49. Sahnalashtirish jarayoni necha bosqichda amalga oshadi.
 50. Bolalar teatr faoliyati nimalarni organa oladi.
 51. Sahnalashtirish oyinlari nechta turda tashkil etiladi.
 52. Oyinning asosiy turlari.
 53. Sahnalashtirilgan oyinning asosiy turlari.
 54. Qo'g'irchoq tanasining turli joylariga ingichka iplar bo'g'lanib, maxsus asbonga bog'lanib boshqariladigan qo'g'irchoq bu.
 55. Qanday o'yinlar bolalarda irada, imtizom, o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijodiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi.
 56. Teatrning barcha turlari uchun aributlar va o'yin materiallari, rolli, dramatik, rejissyorlik va drammatizatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'yin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan "Sartaosh", "Kasalxona" va "Do'kon" o'yinlari aributlari - qaysi rivojlaniruvchi markazda bo'lishi kerak.
 57. Ilk qadam" davlat o'quv dasturida keltirilgan "Kompetensiya" tushunchasini izohlang.
 58. Maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolaning umumiy kompetensiyalarini sanang.
 59. Til va nutq markazida bolalar nimalarni o'rganadi.
 60. Kommunikativ kompetensiya nima.
 61. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga nima yordam beradi.
 62. Bolaning kompetensiyalari bola rivojlanishining nechta sohalarida belgilanadi.
 63. "Nutq, mulohot, o'qish va yozish malakalari" sobasi kichik sohalar qaysilar.
 64. Integratsiya tushunchasi nimani anglatadi.
 65. Inklyuziv ta'lim nima.
 66. Refleksiv faoliyat nima.
 67. Nutq rivoji orqali qaysi ko'nikmalar shakllanadi.
 68. Nutqni rivojlantirishning birinchi vazifasi qaysi.
 69. Passiv lug'at deganda nima tushuniladi.
 70. Faol lug'at nimani anglatadi.
 71. To'g'ri talaffuzni shakllantirish nimani anglatadi.
 72. Nutqning ifodaliligi nimani bildiradi.
 73. "Jonlanish kompleksi" nimani anglatadi.
 74. ILK QADAM Davlat o'quv dasturi qaysi hujjatga muvofiq ishlab chiqilgan.
 75. Rus pedagogi K.D. Ushinskiyning asosiy asari qaysi.
 76. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish nazariyasini ilmiy asoslab bergan olim kim.
 77. Shaxs Tushunchasi Nimani Ifodalaydi.
 78. Faoliyat nima.
 79. Ilk bolalik davri qaysi yoshlarni o'z ichiga oladi.
 80. Go'daklik davri qaysi yosh oraliqini qamrab oladi.
 81. Rang va shaklni farqlash qaysi o'yinlar orqali rivojlanadi.
 82. Didaktik o'yinlarning asosiy vazifasi nima.
 83. "O'yin bolalar yashayotgan va o'zgartirishi lozim bo'lgan dunyoni bilish yo'lidir" degan fikr kimga tegishli.
 84. Ijodiy o'yinlarning mazmunini kim belgilaydi.
 85. Maktabgacha ta'lim va tarbiya standartini qachon qabul qilingan.
 86. "Jonlanish kompleksi" nimani anglatadi.
 87. Dialogning birinchi shakli qanday nomlanadi.
 88. Emotsional-erkin dialog nimasi bilan tavsiflanadi.
 89. Dialogning birinchi shakli qaysi davrga xos.
 90. Dialogning ikkinchi shakli qanday ataladi.
 91. Dialogning ikkinchi shakli qachon rivojlanadi.
 92. Ikkinchi shakldagi dialog nimaga asoslanadi.
 93. "Shifokor va bemor" o'yini qaysi turga mansub.
 94. Bilish faoliyati nimaga qaratilgan.
 95. Ilk chaqaloqlik davrida emotsional javoblar qanday bo'ladi.
 96. Sabab-qqibatni tushuma boshlash qaysi rivojlanish belgisi hisoblanadi.
 97. Nutqiy namuna - bu.
 98. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish metodlarini aniqsang.
 99. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash vazifalari to'g'ri berilgan javobni aniqsang.
 100. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning diologik nutqi negizida qanday nutq rivojlanadi.
- 2-fan "Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi" fanidan test topshiriqlari**
1. Tasviriy san'at turlarini aniqsang
 2. Dekorativ bu.....
 3. Plastilin bu.....
 4. Shar, olma, apelsin, oлча, koptok shakllarini plastilin(loy) dan qaysi guruhda o'rgatiladi.
 5. M.T.T-da qurish yasash mashg'ulotida qaysi materiallar bilan bolalar ishlaydi.

6. Bolalar tasvirovchi shakllar noaniq bo'ladi, chunki bu yoshda bolalar qo'l harakati rivojlanmagan, qo'l muskullari hali o'smagan, shuningdek, ishlarni kuzatib, nazorat qilib borish xususiyatlari hali rivojlanmagan bo'ladi..... bu qaysi guruhda plastilin bilan ishlashda amalga oshiriladi.
7. Bolalar idishlar yasab, so'ng uni bo'yaydilar, dekorativ plastinkalar yasab ularni bezaydilar. Bunday faoliyat qaysi guruhda olib boriladi.
8. Applikatsiya bu.....
9. Asosiy fonga turli predmetlar yordamida badiiy bezash uchun ishlatiladigan xalq amaliy san'atining bir turi qanday applikatsiya turiga kiradi.
10. Applikatsiyada tayyor shakllarni qog'ozga to'g'ri, turi xil joylashishda terib chiqib va yopishtirishga qaratilgandir bunday faoliyat qaysi guruhda o'rgatiladi.
11. Bolalarda rang qobiliyatini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz.
12. MTTda applikatsiya ishlarida tayyor qirqilgan shakllarni joylashtirib yopishtirish qaysi guruhda o'rgatiladi.
13. Bu yoshga kelib bolalarda tasviriy o'quvi va texnik usullari mavjud bo'ladi, qo'l muskullari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan qiladigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi bu usul qaysi guruhda amalga oshiriladi.
14. Dastlab qog'oz nechanchi asrda qaysi davlatda kashf etilgan.
15. 4-5 qismdan iborat predmetlarni tuzishga applikatsiyada o'rganadilar. MTTda bunday applikatsiya mashg'uloti faoliyat qaysi guruhda o'rgatiladi.
16. Natyurmort so'zining ma'nosi nima.
17. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qaysi guruhdan boshlab amalga oshiriladi.
18. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qaysi mashg'ulot turlarini o'z ichiga oladi.
19. Grafika bu..
20. Haykaltaroshlik materiallari bu..
21. Mazmunli rasm chizish qanday rasm tasvirlanadi.
22. Kichik guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qancha vaqt davom etadi
23. O'rta guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qancha vaqt davom etadi
24. Kulolehlik qaysi san'at turiga kiradi.
25. Dekorativ rasm chizishdadan bezak ishlari bajariladi.
26. Qaysi tasviriy faoliyat mashg'ulotida qog'oz bilan ishlanadi.
27. Akvarel bo'yog'ida.....ishlanadi
28. Dekorativ rasm chizishdatasvirlanadi
29. Chizmatasvir qaysi tasviriy san'at turiga mansub
30. Kompozitsiya bu.
31. Applikatsiya mashg'ulotida qaysi materiallardan foydalaniladi.
32. Ilyustratsiya nima.
33. Ular predmetlar tuzilishidagi xususiyatlarni ajrata oladigan, tarbiyachining tushuntirib, ko'rsatib berishini bilan tinglay oladigan bo'lishadi, lekin yasagan ishlari quyi guruhdan katta farq qilmaydi..... qaysi guruhda bajariladi.

34. Loy ishining texnik usullari: barmoq uchlari bilan ishlashga, mayda qismlarni chimdirib chiqishga qaysi guruhdan boshlab o'rgatiladi.
35. Qaychidan tasviriy faoliyat mashg'ulotining qaysi turida foydalaniladi.
36. Applikatsiya mashg'ulotlarini to'laqonli o'lkazish uchun muhimdir.
37. Tasviriy faoliyatning turlari qaysi javobda ko'rsatilgan.
38. Bortliqni badiiy real ifodalashning asosiy turi nima.
39. Applikatsiya MTTda birinchi bo'lib qaysi guruhlarda olib boriladi.
40. Ertak asosida loy ishi bu.
41. Loy bilan ishlashda ishlatiladigan asboblari nima.
42. "Grafika" - so'zi ma'nosi nima.
43. Bortliqni badiiy real ifodalashning asosiy turi nima.
44. Tasviriy san'at qaysi turida tasvirlash va ko'paytirishning oddiy
45. Rasmda ifodalilikni ko'rsatuvchi omil(applikatsiya)
46. Qora - oq rang bu.
47. Xavorang bu.
48. Tevarak atrofda predmetlarni joylashishi nima.
49. Bir yoqlama qaytarib ishlatiladigan xaykal qanday nomlanadi.
50. Loy bilan ishlashda ishlatiladigan asboblari nima.
51. Bir necha qism iborat, shaklini yasashda qulay usul.
52. Ertak asosida loy ishi bu.
53. Qurish yasash - (lotincha bo'lib) bu.
54. Qobiliyatni o'sishidagi boshlovchi omil bu.
55. Qobiliyatni o'sishida tayanch vosita nima.
56. Tasviriy qobiliyatni joylashuv fondi bu.
57. Amaliy uslub bu.
58. Loy bilan ishlashda atrofda qalqilarga xalaqit bermaslik, qo'llarni ishlashdan oldin yuvish.
59. Bolalar yasaydigan predmetlari necha qismdan oshmasligi kerak
60. Applikatsiya ishida siluet qirqish usuli qaysi guruhda o'rgatiladi.
61. Qurish-yasashga o'rgatishda tashlandiq ashyolardan buyum yasashga o'rgatish qaysi guruhda o'rgatiladi.
62. Butun yil davomida olib boriladigan mashg'ulotlar asosan qanday nima asosida olib boriladi.
63. O'rta guruhda qanday detallar qo'shib yasash o'rgatiladi
64. Kaysi rassom "Mening qo'shig'im" asarini yozgan.
65. "Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati" kitobining muallifi kim.
66. Qirqib yopishtirish qaysi guruhdan boshlab o'rganiladi.
67. Qaysi guruhda bolalar bilan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xamkorlikda olib boriladi.
68. Kichik guruhda rasm mashg'uloti necha minut davom etadi.

69. Musiqa va rasm solishning o'zaro bog'liqligi haqidagi quyidagi fikrning muallifi kim.
70. Qurish-yasash mashg'ulotlari qaysi guruhdan boshlab olib boriladi.
71. Bolalar o'z ishlarida nimalarga rioya qilmaydilar
72. Bu guruhda tarbiyachi qanday ishlarni olib borishi lozim.
73. 2 nafari orasida yumaloqlash xanda slindr shakliga keltirish.
74. Predmetning rangiga uning shakliga va xususiyatiga
75. Mashg'ulotlar davomida bolalar nimalarni o'rganadilar.
76. Butun yil davomida olib boriladigan mashg'ulotlar asosan qanday nima asosida olib boriladi.
77. O'rta guruhda qanday detallar qo'shib yasash o'rgatiladi
78. O'rta guruhda idishlarni yasashni necha xil usullardan foydalanadilar
79. Ikkinchi kichik gruppada bolalar loy plastilindan o'yinchoqlar yasashda avvalo qanday vazifalarni xal qiladi.
80. Ikkinchi kichik gruppada mashg'ulotlar tematikasi, asosan qanday xarakterda
81. Tasviriy san'atning necha turi mavjud.
82. Xaykaltaroshlikning turlarini sanab bering.
83. Relief usulidagi tasvir turlari.
84. Bolalar loy ishini turlari.
85. Predmetni idrok qilishni N.P.Sokulina nechta etapga bo'lgan.
86. Mashg'ulot dastur maqsadi nechta qismdan iborat.
87. Kaysi rassom "Mening qo'shig'im" asarini yozgan.
88. "Dugonalar" asari kimning mo'yqalamiga mansub.
89. Kaysi guruhda paralonning xususiyatlari bilan tanishtiriladi.
90. Qaysi rassom "Mening qo'shig'im" asarini yozgan.
91. "Dugonalar" asari kimning qalamiga mansub.
92. "Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati" kitobining muallifi kim.
93. Qirqib yopishtirish qaysi guruhdan boshlab o'rganiladi.
94. Bolalar bog'chasida predmetlarni kuzatish nechta etap asosida amalga oshiriladi.
95. Qaysi guruhdan boshlab loy ishida stek tayoqchasidan foydalaniladi.
96. MTT bolalarini applikatsiyaga o'rgatishda nechta qirqish usuli bor.
97. Loy ishini texnik usullari: barmoq uchlari bilan ishlashga, mayda qismlarni chimdib chiqishga qaysi guruhdan boshlab o'rganiladi.
98. Bolalar bog'chasida "Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash" kitobining muallifi kim.
99. Kichik va o'rta guruhlarda loydan o'yinchoqlar yasashda qaysi usullardan foydalaniladi.
100. Rasm chizishda qaysi vositalardan foydalaniladi?
- 3-fan "Tabiat bilan tanishtirish metodikasi" fanidan test topshiriqlari**
1. "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi" fanining asosiy maqsadi nima.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish vazifalari nimalardan iborat.
3. Ekologiya so'zining tarifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.
4. Bilinchi daryoning ko'zleri yoshlansa uning boshiga ham kul fat tushgan bo'ladi" bu so'zlar qaysi allomaning fikri.
5. Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari qaysilar.
6. Tabiat bilan tanishtirish metodlarini aniqlang.
7. Tabiat bilan tanishtirish ish shakllari. Kuzatish va uning turlari
8. Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish qaysi metodga kiradi.
9. Ekologiya tushunchasini fanga birinchi bo'lib kim tomondan kiritilgan.
10. Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish qaysi guruhdan boshlab o'tkaziladi.
11. O'yin, mehnat kundalik kuzatish qaysi metodga kiradi.
12. Tabiatga oid hikoya, suhbat, qaysi metodga ta'liqli.
13. Didaktik o'yinlarga qaysilar kiradi.
14. Tarbiyachining hikoyasiga qo'yilgan talablar.
15. Ekskursiya turlari.
16. Akvariunda yashovchilar (baliqlar) qaysi qatorda tug'ri kursatilgan.
17. O'zbekistondagi eng muhim ekologik muammo .
18. Ekologiya sozi fanga nechanchi yildan kiritilgan.
19. Ekskursiyada qaysi metod qo'llaniladi.
20. Ekologiya faniga hissa qo'shgan Markaziy Osiyo olimlari.
21. Og'zaki o'yin turlariga qaysilar kiradi.
22. Mudiraning tabiat bilan tanishtirish ishiga rahbarlik yo'nalishlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.
23. Yer maydonchasiga tavsiya etilgan gullar .
24. Qisqa muddatli kuzatishga qaysilar kiradi.
25. Uzoq muddatli kuzatishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.
26. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotini tuzilishi
27. Hozirgi davrda ekologik tanglikni kelib chiqishini asosiy sababi.
28. Terrariumda yashovchilar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.
29. Og'zaki metod bu-.
30. Yomg'ir yog'ish, qor yog'ish, chaqmoq chaqish qaysi kuzatish turiga kiradi.
31. Ko'rgazmali metodlar guruhi namoyishi bu.....
32. Ekologiya fanida eng ko'p foydalaniladigan ushblar .
33. Mehnat asboblari va ularga qo'yilgan talablar qanday.
34. Tabiat burchagidagi hayvonlarni parvarish qilish uchun asboblari.
35. "U yerning tog'i, yaylov va soylari ko'p, u yaylovlarda qo'yilar suruvi o'tlab yuradi; chuqur ko'l va daryolar ko'p. O'rta Osiyo so'g'dlari, maroqandliklar, baqtriyaliklar makonidir" bu qayd etilgan so'zlar qaysi asardan olingan.
36. Tabiat bilan tanishtirishda tarqatma materiallar turlari ko'rsatilgan javobni aniqlang.
37. Mashgulot turlari qaysilar.
38. Tarbiyachi bilan bolaning ma'lum ta'lim-tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishda nima qo'llaniladi.

39. O'rta guruhda bahor faslida o'tkaziladigan mashg'ulot va ekskursiyalar tartibini toping.

40. Amaliy metod bu-

41. Tabiat bilan tanishtirish ishlarini qaysi mashg'ulotlar bilan olib borsa bo'ladi.

42. Tabiat burchagidagi mehnat turlari qaysilar.

43. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tabiatdagi mehnat turlari.

44. Tabiat burchagida qanday qushlar parvarish qilinadi.

45. Ekologik omil deganda nimanı tushunasiz.

46. Tabiat bilan tanishtirish oddiy tajribalari qaysilar.

47. Tabiat bilan tanishtirishda ta'limiy o'yin qaysi.

48. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni -

49. "Insonni tarbiyalashdagi muhim agentlardan biri tabiatdir". Ushbu fikr qaysi pedagog tomonidan aytilgan.

50. O'z vaqtida yerga toza urug' sepmoq 10 ming ibodatdan har qanday qurbonlikdan afzal". Ushbu fikr qaysi asarda keltirilgan.

51. "Qizil kitob" mamalakatimizda birinchi marta nechanchi yil chop etildi.

52. Tabiat bilan tanishtirish ish shakllari.

53. Ekologik tarbiya vazifalari noto'g'ri berilgan javobni aniqlang.

54. Tabiat burchagidagi ishlar ekologik tarbiya berishning.....

55. Ekologik ta'lim berish vositalari qaysi qatorida to'g'ri berilgan.

56. Maktabgacha ta'limda o'qitish metodlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

57. "Yer sayyorasi-umumiy uyimiz" maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tuzilgan parsial dasturda nima yoritilgan.

58. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha parsial dasturni ishlab chiqishda qaysi mamlakatlarning ilg'or xalqaro tajribalari hisobga olindi..

59. Biosfera tushunchasining lug'aviy ma'nosi.

60. "Yer sayyorasi-umumiy uyimiz" maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tuzilgan parsial dasturi qachon ishlab chiqildi.

61. "Yer sayyorasi-umumiy uyimiz" maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun tuzilgan parsial dasturining mualliflari.

62. Qaysii tushunchalar ekologiya fanining manbai hisoblanadi.

63. Yerning tirik organizmlar va biogen cho'kindi tog' jinslari tarqalgan qismini kim tomonidan biosfera (yunoncha - "bios" - hayot, "sfera" shar) deb nomlagan. ta'limot yaratilgan.

64. Sayyoramizning "hayot qog'iri" hisoblanib, tirik organizmlarning o'zaro chambarchas aloqa, munosabatlardan iborat murakkab ekosistemalar majmuini nima tashkil etadi.

65. "Inson ekologiyasi" degan yangi fan qacho va kim tomonidan kiritildi.

66. Qaysi kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, kattakichligi,

tuzilishi, fazoviy joylashuvi, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakterini, ularning chiqaradigan tovushlarini o'rganadilar.

67. Kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi qanday usullardan foydalanishini aniqlang.

68. O'simliklarni kuzatish boshlanadi. Aniq javobni toping.

69. Tarbiyachi ... kuzatishni tashkil etishda, uni oldindan bir qator epizodik kuzatishlar "bo'laklarga" taqsimlaydi. Bunday kuzatish o'simliklar rivojlanishidagi o'zgarishlar aniq ko'rinadigan vaqtda o'tkaziladi. Nuqtalar o'rninga to'g'ri javobni aniqlang.

70. Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish sifatida ... keng foydalaniladi.

Nuqtalar o'rninga to'g'ri javobni qo'ying.

71. Qaysi guruhda bolalar bilan o'tkaziladigan kuzatishlar qisqa muddatli bo'lib, tarbiyachi bolalar diqqatini jalb qilish maqsadida ularning ba'zilariga suvdonga suv quyish, hayvonlarga ozuqa berish, baliqlarni oziqlantirish kabi topshiriqlarni beradi.

72. Qaysi guruh bolalarini predmetlardagi xarakterli xususiyatlarini ko'ra bilishga, ularni qiyoslash va guruhlashga, ba'zi hodisalar o'rtasidagi oddiy aloqalarni aniqlashga o'rgatadi, dastlabki elementar umumlashtirishni shakllantiradi.

73. Qaysi uslubda kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar olib boriladi.

74. Qaysi uslubda tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlari o'qish, suhbat olib boriladi.

75. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik o'yinlarning qaysi turlaridan foydalaniladi.

76. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik o'yinlarning qaysi turlaridan foydalaniladi.

77. Qisqa muddat ichida tabiatda nimanı kuzatish mumkin.

78. Mehnat malakalarini shakllantirish qaysi metod orqali amalga oshiriladi.

79. Hozirgi davrda ekologik tanglikni kelib chiqishini asosiy sababi.

80. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda mtning vazifalari nimalardan iborat.

81. "Insonni tarbiyalashdagi muhim agentlardan biri tabiatdir". Ushbu fikr qaysi pedagog tomonidan aytilgan.

82. Kichik yosh guruhda nechta xona gullari bilan tanishtiriladi.

83. Amaliy metod turlari.

84. Sabzavot ekinlari zararkunandalari.

85. Tabiat burchagi uchun hayvon va o'simliklarni tanlashda nechta talab qo'yilgan.

86. Xona gullarini parvarish qilish yo'llari qaysi qatorida to'g'ri ko'rsatilgan.

87. Tabiatga oid "Tomchi" hikoyasining muallifi kim.

88. Katta guruh tabiat burchagi o'simliklari.

89. MTM yer maydonchasida ekiladigan soyabonguldoshlar o'simliklar qatorini kursating.

90. Akvariunda o'sadigan o'simliklarnimecha xil tarzda joylashtirib kompozitsiya yaratish mumkin.

91. O'rta guruh tabiat burchagiga tavsiya etilgan xona gullari.

92. Akvariunda yashovchilar (baliqlar) qaysi katorda tugri kursatilgan.

93. Mudiraning tabiat bilan tanishtirish ishiga raxbarlik yo'nalishlari qaysi qatorida to'g'ri ko'rsatilgan.

21. ... -deb sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni toping
22. Hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo'lgan illuziya turi qanday
23. Materialning yashash shakliga qarab idrok necha turga bo'linadi
24. Xotirani faoliyat maqsadiga ko'ra turlari qaysilar
25. "yelimlash" degan ma'noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi.
26. Obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarni o'zgartirishdir. Nima deyiladi
27. Ijodiy xayolning, tilakning kelajakka qaratilgan shaklidir
28. ... shunday bir tafakkur operatsiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying
29. shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xshashligi va birbiridan farqi aniqlanadi. 30. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying
31. Intellekt so'zining manosi nima
32. Tafakkur jarayonlari: takkostasht, sintez, umumlashtirish... Tushurib qoldirilganini toping.
33. Tafakkurning mantiqiy shakllari: kukm, tushuncha.....
34. Odamning muayyan bir davrdagi ruhiy xolatini ifoda etuvchi ruhiy holat
35. Faoliyat asosini tashkil qiluvchi xatti-harakatga undovchi kuch-
36. Faoliyatning asosiy turlari:, mehnat, o'yin. Tushurib holdirilgan turini ko'rsating.
37. Moddiy yoki mahaviy boylik yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi.
38. Ichki psixik faoliyatning tashqi predmetli faoliyatga aylanishi _____ deyiladi .
39. Ehtiyoj deb-
40. Temperamentning o'zgarishi qanday omillarga bog'liq.
41. Simovchi-uchuvchilarda temperamentning qaysi tipi ustun bo'lishi kerak.
42. Xarakterning shakllanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omil, bu: ...
43. Asalari va chumollilarning murakkab xatti-harakatlarini nima deb atash mumkin.
44. Ikkinchi signal tizimining manbai nima.
45. Nutqning buzilishi nima deb ataladi.
46. Ixtiyorsiz diqqatning fiziologik asosini nima tashkil etadi.
47. Ochlilni, chanqashni, ko'ngil o'zishini sezish qaysi sezgi turiga taalluqli.
48. Kishilar xotirasidagi farq asosan xotira kuchida ifodalanadi. Quyidagi xotira tipining eng kuchlisi qaysi.
49. Xotira buzilishi nima deb ataladi.
50. Xalq ertaklaridagi suv parisi, bulbuligo'yo, kentavr, sfinks kabi obrazlarning yaratilishi qaysi xayol jarayoniga taalluqli.
51. Hayvonlarda hissiyotning qaysi shakli mavjud.
52. Temperament terminiga kim birinchi bo'lib asos solgan.

ham qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshuruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir", deb hisoblaydigan olim kim.

94. Ekologiya so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi.
95. Ekologik tarbiya vazifalari noto'g'ri berilgan javobni aniqlang .
96. Ekologik ong deganda nimani tushunasiz.
97. Sayr va uning turlari.
98. "Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshuruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir", deb hisoblaydigan olim kim.
99. Ekologik ong deganda nimani tushunasiz.
100. Ekologik tarbiya vazifalari noto'g'ri berilgan javobni aniqlang .

4-fan "Umumiy psixologiya" fanidan test topshiriqlari

1. Psixologiya fani fan sifatida nimani o'rganadi.
2. Bilish jarayonlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.
3. Iroda, xisssiyot, tafakkur, iroda, temperament
4. Ongning nechta xossasi bor
5. Idrok ta'rifini aniqlang.
6. Idrokning buzilishlarini aniqlang
7. Sezgi qanday jarayon.
8. Psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosi
9. Refleks tushunchasini fanga kiritgan olim
10. Kishi hech qanday g'oyalarga ega bo'lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi - "toza taxta" bo'lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Ushbu so'zlar kimga tegishli
11. B.G. Ananiev psixikani o'rganish metodlarini necha guruhga ajratib, o'rgangan
12. Inson shaxsini o'z-o'zini boshqarish jarayonlarini o'rganadigan fan
13. Ta'lim tarbiya jarayonida inson shaxsini shakllanishini o'rganadi fan
- .. metodi yordamida o'rganilgan ob'ektdagi o'zgarishlar turli nuqtai - nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi.
14. Dominantalik tamoyilini fanga kim kiritgan
- "diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlar kimga tegishli
15. Ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishga nima deyiladi
16. Ichki tana a'zolari holatlarini aks ettiruvchi hamda reseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarda joylashgan sezgilar, qanday reseptorlar deyiladi
17. Og'riq, chanqoq, noxush tuygular va ochlikni sezuvchi sezgilar, sezgilarning qaysi turiga mansub
18. Turli xildagi sezgilarning o'zaro ta'siri natijasida qo'shilib ketishi fanda nima deyiladi
19. Ichki omillar ta'siri natijasida analizatorlar sezgiriligining ortib ketishi fanda nima deyiladi
20. bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying

53. "Temperament" so'zi qanday ma'noni anglatadi.
54. Qobiliyatlar rivojlanishining eng yuqori darajasi, bu: ...
55. Shaxs faolligining manbai nima.
56. Inson bosh miyasi o'rtacha qancha og'irlikka ega.
57. Bog'cha yoshidagi bolalarda yetakchi faoliyat turi qaysi.
58. Faoliyatni amalga oshirishdagi dastlabki bosqich qaysi.
59. Eksperimentatsiya deganda nimani tushunasiz.
60. Quyidagi - oqlik, kenglik, balandlik va kattalik tushunchalari tafakkurning qaysi jarayoni yordamida olingan.
61. Tafakkur shakllarini qaysi fan o'rganadi.
62. Sanguvnik temperamentni tipiga mansub kishilarning asab tizimi qanday xususiyatga ega.
63. Nihoyatda yuvosh, bamayixofir, harakatlari salmoqli, og'ir-bosiq. Ammo boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. Bu tasnif qaysi temperament tipiga taalluqli.
64. Tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turi qaysi.
65. Tush ko'rish xayolning qaysi turiga taalluqli.
66. Ijodiy xayolning tilakdagi kelajakka qaratilgan shakli bu:
67. Unchalik kuchli bo'lmagan lekin juda uzoq vaqt davom etadigan hissiy holat bu:
68. Qonning xususiyati issiqlikdir uning vazifasi tanani istitib turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli.
69. Balg'arning xususiyati badanni sovutib turishdan iboratdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli.
70. ... - bu insoniyat tarixi davomida inson ongining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
71. - bu individ psixikasining asosiy tuzilmalarining individual rivojlanish davridagi shakllanishidir.
72. - bu avvalo genotipik (nasliy) tuzilma bo'lib, u filogenez mahsulidir. Biroq individ genotipik tuzilma bo'libgina qolmasdan, balki uning rivojlanishi ontogenezda ham davom etadi.
73. deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal ta'orqli munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.
74. Odamning ligi - har bir individning betakrorligidir.
75. Shaxsiyat xususiyatlari, qobiliyatlari va motivatsiyasi sohalarida differentsial psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan ingliz va amerikalik psixolog kim.
76. 1856 yilda Freyburgda, o'sha paytdagi Avstriya Vengriya imperiyasining hozirgi kunda Chex respublikasiga taluqli qismida tug'ilgan mashhur psixolog kim.
77. "Tushlarning ta'bir", "Psixozanalizga kirish bo'yicha ma'ruzalar", "Lazzat tamoyili ortida", "Bir ilyuziyaning kelajagi", "Madaniyatdan norozilik", "Musos va monoteizm" asarlari muallifi kim.
78. Freydring ko'rsatishicha odam shaxsi, o'zida nechta tuzilmani mujassam etadi.
79. Inson psixikasining eng chuqur va ahamiyatli qatlami bu.
80. Shaxsning ratsional va anglangan tuzilmasi bu.
81. Muayyan bir jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga rioya erishni qat'iy nazorat ostiga oladi, o'zida vijdon tuyg'usini aks ettirishiga nim deyiladi.
82. Shaxslarni introvert va ekstravertlarga ajratgan olim kim edi.
83. - bu o'z xulq-atvorlarining ichki sabablarni aniqlashga xarakter qiladi. Ular kamsap, ijtimoiy passiv, o'z-o'zini taxlil qilishga moyil, muloqotga kirishmaydigan bo'ladi.
84. - bu o'z nazarlarini tashqi atrofdagi olamga qaratadilar. Ular impulsiv, muloqotga oson kirib keta oladigan va har qanday sharoitga xam osonlikcha kirishib keta oladigan bo'ladi.
85. - bu fikrlash, miya ishi bilan bog'liq bilimni anglatadi.
86. Bosh miya yarim sharlari va ularning po'stlog'i asab tizimining yuqori qismi hisoblanadi.
87. Inson miya po'stlog'i ... zona va ... maydonchaga bo'lingan va bularning hammasi ma'lum bir o'ziga xos funksiyalarni bajaradi.
88. Inson psixikasini boshqarishda eng muhim rolni bosh ... bajaradi. miya po'stlog'i
89. Ko'ruv markazi - miyaning qaysi qismida joylashgan.
90. Hid bilish markazi - miyaning qaysi qismida joylashgan.
91. Ustanovka tushunchasini fanga kim olib kirgan.
92. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu masalada grek faylasuflari bir-biriga zid nechta xil farazni o'rtaga tashlashgan.
93. Til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surgan faylasuf kim edi.
94. Qaysi nazariya tarafdorlari tildagi barcha so'zlar ibtidoiy kishilarning bingalashib mehnat qilish jarayonida mehnat qilishga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlar natijasida paydo bo'lgan, deb da'vo qiladilar.
95. Qaysi nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, uni ilgari suruvchi olimlar ba'zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan, Bu nazariyaga asosan, narsalarni qanday atashni odamlarning o'zlar kelishib olishgan degan xulosaga kelishgan.
96. Kimning "Muhokamat-ul lug'atayn" asari muqaddimasida o'sha davr dunyoqarashiga mos bo'lgan tilning paydo bo'lishiga doir qarashlar bayon qilingan.
97. Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo'lib, sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.
98. Umumiy tilshunoslik fanining asoschisini belgilang.
99. "Nuttq bizni odam qildi" iborasi kimga tegishli.
100. Qanday reflekslar odam va hayvonlarning shaxsiy xayoti davomida orttirgan moslashuv reaksiyalari sistemasi xisoblanadi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.R. Babayeva "Nutq o'stirish metodikasi" T.: Fan va texnologiyalar 2022y. O'quv qo'llanma
2. D.R. Babava "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: TDPU 2017 y O'quv qo'llanma.
3. Q. S. Shodiyeva "O'ria guruh bolalari nutqini o'stirish"
4. F.R. Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: "ISTIQLOL", 2006 y. O'quv qo'llanma
5. Sh.T.Xasanova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: Tafakkur. 2020.
6. Sh.T.Xasanova. Tasviriy faoliyatga o'rgatish. T.: Tafakkur. 2020
7. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
8. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2017
9. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
10. Karimova V.M. Psixologiya T-2002 y
11. Umumiy psixologiya (A.V. Petrovskiy tahriri ostida) T; "O'qituvchi" 1992 y
12. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
13. XI.Djabborova. "Tabiat bioan tanishtirish metodikasi". T.: TDPL 2002
- Sh.A.Sodiqova, M.A. Rasulxojaeva "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi (O'quv qo'llanma) T 2013
14. Goncharova E.V., Nijnevartovsk davlat universitetining maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limi nazariyasi va usullari 2008 yil.
15. Nikolaeva S. N., "Bolalar bog'chasida ekologik ta'lim metodikasi", "Akademiya", Moskva 2001 y.
16. Z.Y/Shanasirova "Tabiat bilan tanishtirish" nazariyasi va metodikasi darslik 2022y
17. Maktabgacha Ta'lim Va Tarbiyaning Davlat Standarti. 22.12.2020 yildagi 802-son

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. <https://lex.uz/docs/-5179335>